

## "DEVONI LUG'OTI-TURK ASARIDA QIPCHOQ SHEVASIGA OID SÖZLARNING"BERILISHI

*Termiz davlat universiteti*

*Özbek filologiyasi fakulteti talabasi*

**Panjiyeva Zuhra**

*Fan"Özbek tili tarixi"*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti-turk" asarida qollanilgan qipchoq shevasiga oid sözlarning berilishi ularning ma'nolari va mazmun jihatlari yoritiladi. Ushbu maqolada asardagi sözlər va ularning qollanish doiralari tushuntiriladi.

**Kalit sözlar:** Javahiru-n-nahvi fi lug'ati-t-turk, yozma adabiy til, qipchoq shevasiga oid sözlər, tahlil, talqin.

### Kirish

"Devonu lug'otit turk" (arabcha: الترك لغات ديوان; tarjimasi „Turkiy so'zlar devoni“) — Mahmud Koshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda XI asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geogr.si, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan. „Devonu lug'otit turk“ning qo'lyozmasi 1914-yil Turkiyaning Diyarbakir sh.dan topilgan. 319 sahifali bu qo'lyozma hozirgi Istanbulda saqlanadi. "Devonu lug'otit-turk" arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo) ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo'lmas edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Mahmud Koshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'llaydi yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki ikki xil talaffuz qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: azuqluq, eritmak so'zlaridagi Z va R harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak kabi. Arabcha harf b-n ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni «Devonu lug'otit-turk»da izohlab, ta'riflab o'tgan.[1]«Devonu lug'otit-turk»da, avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlanadi. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan. Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'otit-turk»ga o'zi tuzgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklidagi tasviri)ni ilova qilgan. Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va h. k. ning nomlari yozilgan. Xaritaga yozilmay qolgan bir qancha nomlar asar matnida

izohlangan. Xarita, asosan, hoz. Sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Asarda 11-a. dagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko'llar, turkiy qabilalar va urug'lar haqida, urug'larning ijtimoiy aqvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug' va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlarini, til xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o'simliklari, ularning nomlanishiga to'xtalib o'tadi, astronomik ma'lumotlar, burj va muchal haqida ham ma'lumotlar bor. «Devonu lug'otit-turk»da ayniqsa qabila va urug' tillariga oid lingvistik ma'lumotlar ancha batafsil berilgan.[2] Bunda har so'zning ma'nolari (polisemiya, omonim, sinonim, antonim va arxa-ik so'zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so'zlarning etimologiyasiga to'xtalib o'tadi. Tovushlar (fonemalar)ning taxlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, ularning urug' tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so'z turkumlarini, davr an'anasiga ko'ra, 3 so'z turkumiga: fe'l, ism, bog'lovchiga bo'lib, ularning yasaliş va turlanish yo'llarini ko'rsatib o'tadi. «Devonu lug'otit-turk»da 250 dan ortiq maqol va matallar, o'nlab she'riy parchalar keltirilgan. V. V. Bartold «Devonu lug'otit-turk»dan o'z ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin ko'rsatib o'tgan. Tilshunos olim V. I. Belyaev «Devonu lug'otit-turk» haqida shunday yozadi: «Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan ma'lumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu ma'lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda». Nemis sharqshunosi K. Brokkel'man «Devonu lug'otit-turk» asarini 1928 yili nemis tiliga tarjima qildi. «Devonu lug'otit-turk» qo'lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915—17) keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939—41) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. «Devonu lug'otit-turk» ningturktilidagi keyingi qayta nashri 1957 y. amalga oshirildi. «Devonu lug'otit-turk» ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va tafsirlari bilan 1960—63 y. lari Toshkentda «Fan» nashriyotida 3 jildda chop etilgan. Bu tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Solih Mutallibovning 35 yillik mehnati natijasi edi. Ushbu nashr faqat tarjima bo'lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh, va tafsir hamdir. O'zbekcha nashrining muqaddima qismida 11-a. filologlari, «Qutadg'u bilig» asari, Maxmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug' va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. «Devonu lug'otit-turk» o'zbekcha nashrining oxirida turkiy urug', qabila, shaharlar va boshqalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so'z va iboralar keng ta'riflanadi, izohlanadi. O'zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, uning har bir jildi asosida tuzilgan ko'rsatkichdir. Unda «Devonu lug'otit-turk»da uchragan so'zlar alifbo tarzida keltirilib, so'zning o'zbek va rus tilida tarjimasi beriladi.



Mazkur soʻzning «Devonu lugʻotit-turk» ning qaysi betlarida uchrashi (oldin oʻzbekcha, soʻng turkcha nashrlarining beti, satri) koʻrsatib oʻtiladi.

### Asosiy qism

"Devoni lug'ati-t-turk" asari turkiy tilshunoslikning bizga ma'lum bõlgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yõq ulug' yodgorligidir. Mahmud Qoshg'ariy asarning kirish qismida bugungi kunimizgacha saqlanmagan boshqa bir asari - "Javahiru -n-nahvi fi lug'ati-t-turki" tõg'risida sõz yuritadi. Bu õrinda muallif lug'at sõzini "tillar" ma'nosida qõllagan. Shunga kõra, õsha noma'lum kitob nomining tarjimasini: "Turk tillarining nahviga oid gavharlar" bõladi. Endi shu õrinda qipchoq shevasiga oid sõzlarning berilishi haqida gap yuritadigan bõlsak, avvalo, qipchoq xalqlarining joylashuv joyi haqida ma'lumotga ega bõlmog'imiz kerak. Qipchoq tillari - turkiy tillar oilasining g'arbiy xun tarmogiga mansub bir qancha o'lik va jonli tillar guruhi. Qipchoq tillari, o'z navbatida, 3 guruhchaga bo'linadi: 1) sof qipchoq guruhchasi — qad. qipchoq (kuman) o'lik tilini (qarang Qipchoq tili) hamda hozirgi jonli qaraim, qorachoy-bolqor, qrim-tatar, qo'miq tillarini o'z ichiga oladi; 2) qipchoq-bulg'or guruhchasi — o'rta asrlarda amalda bo'lgan g'arbiy oltin o'rda (o'lik) adabiy tilini hamda hozirgi jonli tatar va boshqird tillarini o'z ichiga oladi; 3) qipchoq-no'g'ay guruhchasi — faqat hozirgi jonli no'g'ay, qozoq, qoraqalpoq tillarini, shuningdek, o'zbek tilining qipchoq shevalarini qamrab oladi. Qipchoq tillari — kelib chiqishi yagona qipchoq tiliga borib taqaladigan rpynm turk tillari guruhlarining tillar soni (11 ta til) bo'yicha eng yirik tillardan biri hisoblanadi. Boshqa nomlari: shimoliy-g'arbiy, tau-guruh va boshqa Quyidagi ostguruhlarini o'z ichiga oladi: polovets-qipchoq yoki qipchoq-kuman (g'arbiy-qipchoq, kavkaz-dog'iston, polovets-qipchoq) — qaraim, qorachoy-bolqor, qirimchoq (lekin zamonaviy og'zaki nutqda va ayniqsa qirimchoq tilining yozma nutqida ko'p o'g'uz elementlari mavjud) va qo'miq tillari, shuningdek o'lik polovets tili, momoliq-qipchoq tili va arman-qipchoq. Qirimtatar va urum tili qipchoq va o'g'uz tillari o'rtasida o'rtaliq o'rinni egallaydi (kelib chiqishi bo'yicha bir qator shevalari qipchoq-plovets, ayrimlari — o'g'uz hisoblanadi, adabiy me'yor aralash xususiyat kasb etadi); Shu õrinda quyidagi sõzni tahlil qiladigan bõlsak: اراق-ariq-anhor ma'nosini anglatadi. Qipchoqlar ushbu sõzdan foydalanishadi. Yana او-av - sõzining ma'nosini esa kõrib chiqadigan bõlsak yõg'on talaffuz qilinadigan alif bilan; buyuruvchining buyrug'ini pisand qilmay, bõysunmaslik õrnida qõllanuvchi "a?", "Nima deyapsiz?" mazmunidagi yordamchi sõzdir. اداق-adaq-sõzini tahlilga olsak, ushbu sõz oyog' yana bir ma'nosi esa boshlanish joy ma'nosini anglatadi. اچفاق-ach'liq-achchig'lik ma'nosini anglatib qipchoqlarning hududi bõyicha kõproq janub vohasidagi qipchoqlar ishlatadigan sõz hisoblanadi.[3]

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu asarni tasnif qilish jarayonida shuni guvohi bõlamizki. Asarda shevalarga oid sõzlar tasnifi shu qadar ma'no aniqliklari bilan tasnif

etiladiki, asarda turkiy soʻzlar ma'nosini ochib berish uchun, oʻrni bilan, she'riy uzundilar va xalq maqollaridan keltirilgan. Qoʻlyozma ushbu she'riy uzundilar *وقال* maqollar esa *وفيالمثل* jummalari bilan boshlangan. Ushbu boshlamalar asarni hozirgi tarjimalarida turlicha berilganini koʻrishimiz mumkin. Lekin tasnif jarayonida shevalarga doir soʻzlar koʻp oʻrinlarda ishlatilishini hisobga olib Qoshg'ariy uni birikma holda berganligini koʻrishimiz mumkin. Asarning tili esa shundayki, arab tilida yozilgan turkiy soʻzlarning ma'nolarini arab xalqlariga tushuntirib berish uchun yozilganligini yaqqol dalilidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Devoni lug'oti-turk (Turkiy soʻzlar devoni)/M.Qoshg'ariy.-Toshkent:G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy iyyi,2017.-488b
2. Б.Абдушукуров. "Девону луFOтит турк" ва узбек тили шевалари. "O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),-Toshkent, ToshDO'TAU, 2021-yil, 22-may.180-bet.
3. M.Xolmurodova. "Qutadg'u bilig"dagi nodir turkiy so'zlar. "O'zbek tilini dunyo miqyosida keng targ'ib qilish bo'yicha hamkorlik istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Toshkent, ToshDO'TAU, 2020-yil 19-20-oktabr. 194-bet.
4. X.,.Дадабоев. "Махмуд КошҒарийнинг "Девону луFOтит турк"асарида кулланган кул-оёк кийимлари номлари. "O'zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv" mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),-Toshkent, ToshDO'TAU, 2021-yil, 22-may. 160-bet